



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **5 280** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyun nisbatan **227** taga kamaygan (o'sish sur'ati **95,9** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **83** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **5 197** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-may oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **7 030,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **104,5** % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **213,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **97,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **6 816,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **104,8** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 406,4** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,8** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	7030,2	104,5	213,7	97,4	6816,5	104,8
Termiz sh.	1293,5	112,7	50,9	124,9	1242,6	112,2
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	300,3	112,9	3,4	91,2	296,9	113,2
Angor	319,9	100,3	11,5	67,0	308,4	102,2
Bandixon	107,9	116,2	1,2	89,4	106,7	116,7
Boysun	291,3	99,0	2,0	88,3	289,3	99,1
Muzrabot	289,4	101,2	2,7	96,5	286,7	101,3
Denov	1566,1	101,6	87,7	113,1	1478,4	100,9
Jarqo'rg'on	367,7	105,5	11,9	94,2	355,8	105,9
Qumqo'rg'on	293,4	94,3	3,6	85,7	289,8	94,4
Qiziriq	313,3	103,6	2,2	60,7	311,1	104,2
Sariosiyo	267,1	102,9	3,5	91,7	263,6	103,1
Termiz	122,4	96,0	3,3	30,5	119,1	102,1
Uzun	333,6	111,3	3,8	98,3	329,8	111,5
Sherobod	435,8	103,9	14,4	98,8	421,4	104,1
Sho'rchi	728,5	102,6	11,6	57,3	716,9	103,9

2023- yilning yanvar-may oylarida 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan viloyatning Bandixon (**116,2 %**), Oltinsoy (**112,9 %**), Uzun (**111,3 %**) tumanlarida va Termiz sh (**112,7 %**) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar-may, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2021- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning mos davriga nisbatan **107,9 %** ni yoki **5 218,7** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar-may oylari)



2023- yilning yanvar-may oylarida o'sish sur'ati **104,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumanida **22,3** % bilan **1 566,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Bandixon tumani **1,5** % bilan **107,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **6 816,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **4,8** % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **97,0** % ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar (foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2,6** % ga kamaydi va **213,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,0** % ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (**99,3** %), Boysun (**99,3** %) va Muzrabot (**99,1** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,0** % ni tashkil etib, eng katta ulush Denov **5,6** %), Termiz shahri (**3,9** %), Angor (**3,6** %) va Sherobod (**3,3** %) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot


	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Surxondaryo viloyati	2 498,1	102,1
Termiz sh.	6 582,4	109,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	1 593,8	110,6
Angor	2 272,4	98,1
Bandixon	1 332,5	113,4
Boysun	2 383,8	97,2
Muzrabot	1 920,4	99,1
Denov	3 812,3	99,1
Jarqo'rg'on	1 579,5	103,1
Qumqo'rg'on	1 174,1	92,1
Qiziriq	2 578,9	101,6
Sariosiyo	1 197,0	100,7
Termiz	1 483,1	93,8
Uzun	1 815,1	108,9
Sherobod	2 109,3	101,8
Sho'rchi	3 258,3	100,2

2023- yilning yanvar-may holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 498,1** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **102,1** %) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (**6 582,4** ming. so'm), Denov (**3 812,3** ming. so'm) va Sho'rchi (**3 258,3** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 406,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **113,8 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **639,6** mlrd. so'mni (**131,4 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **766,8** mlrd so'mni tashkil etdi (**102,3 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi mlrd. so'm



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI


Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda

◆ Dehqon bozorlar

■ Chorva bozorlar



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1406,4	113,8	639,6	131,4	766,8	102,3
Termiz sh.	108,6	2,3 m	108,6	2,3 m		
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	137,7	129,3	46,5	194,3	91,2	110,4
Angor	48,7	78,6	36,5	89,0	12,2	58,1
Bandixon	74,2	123,9	6,6	143,3	67,6	122,3
Boysun	81,8	100,9	34,5	96,3	47,3	104,5
Muzrabot	122,0	86,7	40,0	94,7	82,0	83,2
Denov	155,0	130,8	100,5	154,5	54,5	101,9
Jarqo'rg'on	72,5	87,9	22,2	63,7	50,3	105,6
Qumqo'rg'on	80,2	70,5	22,9	54,9	57,3	79,4
Qiziriq	99,8	114,7	34,3	136,3	65,5	105,8
Sariosiyo	105,9	123,2	26,3	94,8	79,6	136,8
Termiz	35,1	96,4	6,3	127,4	28,8	91,6
Uzun	106,7	133,8	63,9	173,9	42,8	99,5
Sherobod	53,1	148,9	43,2	172,4	9,9	93,7
Sho'rchi	125,1	127,3	47,3	158,3	77,8	113,7

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **639,6** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**323,8** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	323,8
	Non va non mahsulotlari	82,5
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	63,7
	Tovuq go'shti	19,1
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yong'oq, bodom, pista va boshqalar)	32,8
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	25,0
	Tuxum	26,2
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak	10,5
	Ziravorlar	12,8
	Tuzlamalar	16,4
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	10,0
	Nooziq-ovqat tovarlari	16,8

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar-may oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **766589** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **579,6** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar – **179,2** mlrd. so‘mni, otlar – **5,7** mlrd. so‘mni, parrandalar – **2,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	364,7
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	118,6
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	96,3
	Qo‘ylar	147,0
	Otlar	5,7
	Echkilar	32,2
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	0,9
	Tovuqlar	1,2
	Quyionlar	0,2
	Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **1 345** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyun holatiga nisbatan **248** taga kamaygan va o'sish sur'ati **84,4 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **1 343** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-may oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,3 %** ni tashkil etib, **163,1** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **3,8 %** ga o'sdi. Bunda savdo aylanmasining **98,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	163,1	103,8	3,1	67,3	160,0	104,9
Termiz sh.	63,2	111,2	2,5		60,7	106,8
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	3,6	101,0			3,6	101,0
Angor	4,5	102,1			4,5	102,1
Bandixon	0,8	101,6			0,8	101,6
Boysun	3,0	100,5			3,0	100,5
Muzrabot	4,1	101,2			4,1	101,2
Denov	27,6	108,2			27,6	108,2
Jarqo'rg'on	9,5	102,8			9,5	102,8
Qumqo'rg'on	4,3	101,2			4,3	101,2
Qiziriq	3,3	102,7			3,3	102,7
Sariosiyo	7,1	103,4			7,1	103,4
Termiz	12,3	98,4	0,6	102,7	11,7	98,2
Uzun	3,8	49,4			3,8	102,0
Sherobod	9,6	104,1			9,6	104,1
Sho'rchi	6,4	107,5			6,4	107,5

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- iyun holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 048,7** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **15,3 %** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **359,2** mlrd. so'm (o'sish sur'ati- **111,0 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **689,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **117,7 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	1048,7	100,0
Termiz sh.	422,6	40,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	4,4	0,4
Angor	40,5	3,9
Bandixon	0,1	
Boysun	6,3	0,6
Muzrabot	48,2	4,6
Denov	421,7	40,2
Jarqo'rg'on	39,9	3,8
Qumqo'rg'on	6,2	0,6
Qiziriq	2,6	0,2
Sariosiyo	6,9	0,6
Termiz	12,3	1,2
shahri	0,7	0,1
Sherobod	3,2	0,3
Sho'rchi	33,1	3,2


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (**422,6** mlrd. so'm) va Denov tumani (**421,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 872,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,2** % ga o‘ydi.




Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1 658,8** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,8** % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **88,6** % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Uzun (**216,0 m.**) va Qiziriq (**17,7 m.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 380** tani tashkil etib, 2022- yil 1- iyun holatiga nisbatan **120** taga oshgan, o'sish sur'ati **105,3** % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 343** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- may oylariga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1872,4	101,2	213,6	68,6	1658,8	107,8
Termiz sh.	453,6	107,9	84,6	145,1	369,0	101,9
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	35,5	87,7	0,6	6,9	34,9	113,8
Angor	25,8	100,6	0,1	54,2	25,7	100,7
Bandixon	21,9	101,3			21,9	101,4
Boysun	14,1	99,9	0,4	47,8	13,7	103,2
Muzrabot	57,3	97,7	0,3	2,2	57,0	122,4
Denov	708,0	105,5	51,6	54,1	656,4	114,1
Jarqo'rg'on	85,6	102,9	0,1	3,7	85,5	105,7
Qumqo'rg'on	53,6	57,5	30,7	43,6	22,9	100,4
Qiziriq	8,6	108,1	0,1	17,7 m	8,5	107,0
Sariosiyo	57,2	112,7	3,1	155,2	54,1	110,9
Termiz	136,6	94,9	1,1	9,1	135,5	102,4
Uzun	38,6	158,9	13,5	216,0 m	25,1	103,7
Sherobod	37,8	104,2	0,1	101,0	37,7	104,2
Sho'rchi	138,2	87,2	27,3	56,8	110,9	100,3



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 76-225-65-74**